O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Rektor: ________ O.Sh.Bazarov
"___" ________ 2024 yil

Ro'yxatga olindi
№ 07/02/05
"27" iyun 2024 y.

# "PEDAGOGIKA PSIXOLOGIYA"

fanidan

# O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100 000 – Ta'lim |
| **Ta'lim sohasi:** | 110 000 – Ta'lim |
| **Mutaxassislik:** | 60112400 – Professional ta'lim (Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish) |

**Qarshi-2024 y.**

1.

| Fanning nomi: "Pedagogika psixologiya" | Fan (modul) turi *Majburiy fan* | Fan (modul) kodi *KP2105* | Ta'lim tili: *o'zbek* |
|---|---|---|---|
| **O'quv yili:** *2024/2025* | **Kurs va semestr** *II kurs, IV- semestr* | **ECTS krediti:** *4* | **Haftalik dars soati:** *4* |
| **Umumiy o'quv soatlari:** *150* | **Ma'ruza:** *30* | **Amaliy mashg'ulot:** *30* | **Mustaqil ish:** *90* |

2.

**I.Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarni ta'lim, tarbiya, o'qish hamda rivojlanishning pedagogik qonuniyatlarini o'rganadi, pedagogik tamoyillar va axborot texnologiyalarini qo'llash mezonlari, professional ta'lim muassasalari turlari va ularni boshqarish tizimini asoslaydi. Ushbu fan insonni kasbiy faoliyatga tayyorlash, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, malakali ishchi kuchini yangi talablar darajasiga moslab borishni ko'zda tutadi. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda professional ta'limni tashkil etish va boshqarish, ushbu jarayonlarda ta'lim sifatini ta'minlash borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish orqali ularning bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyati samaradorligini ta'minlashdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'limni rivojlanish tarixi, ta'limning uzluksizligi va davomiyligi, uzluksiz ta'limning maqsadi, mazmuni, tuzilishi, uzluksiz kasbiy ta'lim tushunchalarini, kasbiy ta'limni tashkil etish va boshqarish to'g'risidagi asosiy normativ hujjatlar, kasb ta'limi mazmuniga qo'yiladigan talablar, professional ta'limni boshqarish tizimi, talabalarga pedagogik-psixologik bilimlarni umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish jarayonida tadbiq etishni o'rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-Modul.**

**Hozirgi zamon psixologiyasining predmeti, maqsadi va uning vazifalari.**

**1-mavzu. Psixologiya predmeti haqida tushuncha**

O'zbekiston Respublikasi umumiy va kasbiy ta'lim tizimi islohatlari. Professional ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida.

"Pedagogika. psixologiya" fanining maqsad va vazifalari. Pedagogikaning asosiy tushunchalari: bilim, ko'nikma, malaka, kasb, ixtisoslik, mutaxassislik, kasbiy ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy tarbiya, kasbiy mahorat.

Uzluksiz ta'lim tizimida kasb-hunar ta'limiga qo'yiladigan talablar. "Pedagogika. psixologiya" fanining boshqa fanlar bilan aloqalarini o'rganish.

**2-mavzu. Psixologiyaning ilmiy-tadqiqot metodlari**

Psixologiya fanida tadqiqot metodlari amal qilinadigan asosiy nazariy prinsiplarga va psixologiya hal qiladigan konkret vazifalarga bog'liqdir.

O'rganilayotgan predmet va hodisalar o'zaro aloqador, bir-birini taqozo etadi, doimo o'zgarishda, rivojlanishda, qarama-qarshi ziddiyatli jarayonlar mavjud deb qarashni tushunish zarurligidan kelib chiqadi.



Hozirgi zamon psixologiyasida fanning qanchalik qadimiyligiga qaramay qator hal qilinishi zarur muammolar, turli oqimlar va olimlar tomonidan ilgari surilayotgan taxmin va farazlar-gipotezalar mavjuddir. Ba'zan bir-birini to'ldiradigan, yoki birini ikkinchisi inkor etadigan konsepsiyalar va nazariyalar ham bor. Bu singari turli muammo va qarashlarni to'g'ri anglab yetish hozirgi zamon psixologiyasining asosiy prinsiplarini-determinizm, ong va faoliyat birligi, psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi prinsiplariga suyangan holda ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga bog'liq hal qilinadi.

**3-mavzu. Faollik, faoliyat va uning turlari**

Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo'nalishda harakat qilishga undaydigan ehtiyojlar uning faolligi manbai hisoblanadi. Ehtiyoj - jonli mavjudotning hayot kechirishining konkret shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatidir. Odam va hayvon ehtiyojlari turlicha bo'lgani ham u tufayli yuzaga keladigan hatti-harakatlar ham bir-biridan farq qiladi. Kishining faolligi ehtiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Hayvon tabiat ne'matlaridan tayyor holidagina faydalanadi, odam esa shu ne'matlarni o'zi tayyorlaydi. Shuning uchun ham kishining o'z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shaklini egallash, faol, muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida ajralib turadi. Ehtiyojlar qondirilishi jarayonida rivojlanib va o'zgarib boradi. Kishining ehtiyoji uni tarbiyalash jarayonida, ya'ni kishilik madaniyati olami bilan yaqinlashtirish jarayonida shakllanadi.

**4-mavzu. Shaxs. muloqot. guruh. jamoa**

Subyektning odam zotiga mansubligi individ tushunchasida ifoda qilinadi. Hayvon bolasi esa dunyoga kelgan kunidanoq hayotining oxirigacha jonzot deb yuritiladi. «Individ» tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgan. Yangi tug'ilgan chaqaloqni ham, katta yoshdagi odamni ham, mutaffakkirni ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoyi odamni ham, madaniyatli mamlakat kishisini ham individ deb hisoblash mumkin.

Individ sifatida dunyoga kelgan kishi alohida sotsial fazilat kashf etadi, shaxs bo'lib etishadi. Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabatlar jarayonida hosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta'sir o'tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan tarzdagi sotsial fazilatlar majmuasi shaxs tushunchasida ifodalanadi.

**5- mavzu. Psixik jaryonlar: diqqat. sezgi. idrok. xotira. tafakkur. xayol**

Psixik hodisalar psixik holatlarni, psixik jarayonlarni va psixik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi tirik organizmning tashqi olamni u yoki bu darajada aks ettirishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham bir so'z bilan ruhiy, psixik hodisalar deb ataladi.Psixik hodisalarning birinchisi hisoblangan psixik holatlar deganda tashqi olamni aks ettirish va javob qaytarish xususiyati, mexanizmlari tushuniladi. Masalan, bolalar va kattalarning dunyoni aks ettirishlari, sog'lom yoki betob odamning aks ettirishi, bardam, tetik yoki horg'in, charchagan odamning aks ettirishi sifat xususiyatlari va holatlari bir-biridan farq qiladi. Psixik xususiyatlar deganda odam-subyektning betakror, bir-biridan farq qiladigan xususiyatlari tushuniladi. Bunda asosan odamning temperamenti, qobiliyati va xarakteri nazarda tutiladi. Psixik hodisalar ichida psixik jarayonlar yetakchi va asosiy mazmunni kasb etadi.

**6-mavzu. Shaxsning individual xususiyatlari**

Tashqi olamni aks ettirish barcha jonli mavjudotlarga xos xislat bo'lsa-da, har bir individning unga munosabati doimo turlicha bo'ladi. Shuning uchun ham psixik hodisalarni turlarga klassifikatsiya qilganda asosan uch guruh alohida diqqat markazida turadi.

- psixik holatlar;
- psixik jarayonlar;
- psixik xususiyatlar.

| | |
|---|---|
| | interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.<br>**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:<br>1. Psixik hodisalar<br>2. Buyuk mutafakkirlar ruhiy hodisalar haqida<br>3. Psixologiya tarmoqlari<br>4. Psixologiyada muammo, gipoteza, konseptsiya, nazariyalar<br>5. Psixologiyada tadqiqot metodlari tizimi<br>6. Tadqiqot metodlari klassifikatsiyasi<br>7. Ehtiyojlar faollik manbai<br>8. Faoliyat strukturasi<br>9. Ko'nikmalar<br>10. Shaxs faolligi va yo'naltirilganligi<br>11. Muloqot va uning turlanishi<br>12. Diqqat, sezgi va uning turlari<br>13. Idrok, tafakkur, xayol jarayonlari, ularning o'xshashligi va farqlari<br>14. Temperament va uning tiplari. (Gippokrat, Ibn Sino qarashlari)<br>15. O'smirlik yoshining psixologik xususiyatlari<br>16. Pedagogikaning tarkibiy tuzilishi va asosiy tarmoqlari<br>17. Tarbiya, ta'lim, ma'lumot tushunchalari<br>18. Muammolarni gipotezalar zanjiriga aylantirish<br>19. "Qur'on" – islom aqidalarining asosiy manbai sifatida<br>20. Turkiston o'lkasida diniy-islomiy tarbiyaviy muassasalar va pedagogik fikr taraqqiyoti<br>21. Ta'lim va tarbiyaning birligi va nazariyaning amaliyot bilan bog'lab o'qitish qoidasi<br>22. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan tarbiya usullari<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **VII. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar**<br>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirishi, mantiqiy va tanqidiy fikrlashi, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritishi va joriy, oraliq nazorat turlarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirishi lozim. |
| 4. | **VIII. Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti**<br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. Abduquddusov O va boshq. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi. – T.O'MKHTTKMO va UQTI, 2011 y.<br>2. Avazboyev O.I., Ismadiyarov Y.U. Kasbiy pedagogika. O'quv qo'llanma. Cho'lpon , T,: - 2020, -319.<br>3. Anarkulova G.M. Ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021 y. – 215 b.<br>4. Ishmuxammedov R.J. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi. 2008.<br>5. Muslimov N.A. Qo'ysinov O.A. Abduraimov SH.S. Kasb ta'lim metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2018.<br>6. Olimov Q. va boshq. Kasb ta'limi uslubiyati. – T.: "Iqtisod-moliya", 2006.<br>**XI. Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2017 yil.<br>2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 23.09. 2020 y. |



| | |
|---|---|
| | 3. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / SH.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.<br>4. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.<br>5. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.<br>6. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. - 458 b.<br>7. Batishev S.Y., Novikova A.M. Professionalnaya pedagogika. Uchebnik. Izdaniye 3-e, pererabotannoye. – M.: Izd-vo YEGVES, 2009. – 456 s.<br>8. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. -T. 2010 y.<br>**Internet saytlari**<br>9. http://planetadisser.com - dissertatsiyalar katalogi.<br>10. http://www.bestdisser.com - referatlar, diplomvakurs ishlari.<br>11. http://www.edu.uz/ - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb sayti.<br>12. www.gov.uz – O'zR ning hukumat portali.<br>13. http://www.press-service.uz<br>14. http://www.gov.uz |
| 5. | Fanning o'quv dasturi Institut Uslubiy Kengashining 2024 yil "27" 06 dagi "12"–sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.<br>O'quv dastur Institut Ilmiy Kengashi (2024 yil "21" 06 №12-sonli qaror) bilan tasdiqlangan. |
| | **Fan (modul) uchun mas'ullar:**<br>**Badalov S.M.** - *"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis" kafedrasi dotsenti.* |
| | **Taqrizchilar:**<br>**Ravshanov X.A.** – *"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsenti*<br>**Toshtemirov S.J.** – *QarMII "QXM va S" kafedrasi dotsenti.* |